



MOLIYAVIY REJALASHTIRISHGA OID ILMIY-TADQIQOTLARNING ILMIY TAHLILI

PhD **Pardayev Jamshid**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-2847-9326

jamshid_padayev@tues.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy rejalashtirish sohasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar tahlil qilindi va ularning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritildi. Moliyaviy rejalashtirishning iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini, uning strategik va taktik darajadagi vazifalari, korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'siri ilmiy asoslarda tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribalariga tayanilgan holda moliyaviy rejalashtirishning zamonaviy usullari, jumladan byudjetlashtirish, moliyaviy modellashtirish, senariy tahlili va risklarni boshqarish yo'nalishlari o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy rejalashtirish iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlovchi muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi. Uning samaradorligi esa to'g'ri axborot bazasi, ilg'or hisob-kitob usullari hamda xalqaro standartlardan foydalanish bilan bevosita bog'liq.

Kalit so'zlar: moliyaviy rejalashtirish, byudjetlashtirish, moliyaviy modellashtirish, risklarni boshqarish, strategik boshqaruv, iqtisodiy barqarorlik.

НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ФИНАНСОВОМУ ПЛАНИРОВАНИЮ

PhD **Пардаев Джамшид**

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье анализируются научные исследования, проводимые в области финансового планирования, и освещаются их теоретические и практические аспекты. На научной основе анализируются роль финансового планирования в экономических процессах, его задачи на стратегическом и тактическом уровнях, а также его влияние на финансовую устойчивость предприятий. Также, на основе опыта зарубежных стран, изучены современные методы финансового планирования, включая бюджетирование, финансовое моделирование, сценарный анализ и управление рисками. Результаты анализа показывают, что финансовое планирование является важным инструментом управления, обеспечивающим экономический рост и стабильность. Его эффективность напрямую связана с использованием корректной информационной базы, передовых методов бухгалтерского учета и международных стандартов.

Ключевые слова: финансовое планирование, бюджетирование, финансовое моделирование, управление рисками, стратегическое управление, экономическая устойчивость.

SCIENTIFIC ANALYSIS OF RESEARCH ON FINANCIAL PLANNING

PhD **Pardayev Jamshid**

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes scientific research conducted in the field of financial planning and highlights their theoretical and practical aspects. The role of financial planning in economic processes, its tasks at the strategic and tactical levels, and its impact on the financial stability of enterprises were analyzed on a scientific basis. Also, based on the experience of foreign countries, modern methods of financial planning, including budgeting, financial modeling, scenario analysis, and risk management, were studied. The results of the analysis show that financial planning is an important management tool that ensures economic growth and stability. Its effectiveness is directly related to the use of a correct information base, advanced accounting methods, and international standards.*

Keywords: *financial planning, budgeting, financial modeling, risk management, strategic management, economic stability.*

Kirish.

Moliyaviy rejalashtirish korxonalarning barqaror rivojlanishi va samarali boshqaruvini ta'minlaydigan asosiy iqtisodiy vosita hisoblanadi. U korxonaning moliyaviy manbalarini to'g'ri taqsimlash, risklarni kamaytirish, investitsiyaviy qarorlarni asoslash va strategik maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli moliyaviy rejalashtirish sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar uning nazariy asoslarini takomillashtirish, amaliy qo'llanilish samaradorligini oshirish hamda zamonaviy usullarni joriy qilishga qaratilmoqda.

Xususan, xorijiy mamlakatlar tajribalari tahlillari moliyaviy rejalashtirishning turli modellari va mexanizmlarini qiyosiy o'rganish imkonini beradi. Ilmiy ishlarda moliyaviy modellashtirish, budjetlashtirish, ssenariy tahlili, soliq rejalashtirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari keng yoritilmoqda. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot sharoitida ushbu usullarning qo'llanilish imkoniyatlari va cheklovlari ham alohida tadqiq etilishda. Shu nuqtai nazardan, ushbu mavzu doirasida moliyaviy rejalashtirishga oid ilmiy-tadqiqotlarning ilmiy tahlili amaliy ahamiyatga ega bo'lib, korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va boshqaruv qarorlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy rejalashtirish masalasi bo'yicha MDH davlatlaridagi ayrim olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu borada Bondarenko va Soltaxanovlarning (2017) ilmiy tadqiqotlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu olimlar fikriga ko'ra, "Zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy rejalashtirish moliyaviy boshqaruvning asosiy elementidir. Bu biznesni xavf va noaniqlikdan himoya qilishga yordam beradigan kompaniya boshqaruvining umumiy mexanizmining bir qismidir" degan ta'rifni beradi.

Visharning (2016) ilmiy tadqiqotlari ham ilmiy ahamiyatga egadir. Vishar ham moliyaviy rejalashtirish boshqaruv tizimining bir qismi sifatida qaraydi va "Moliyaviy rejalashtirish umumiy moliyaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo'lib, u o'z navbatida korxonaning umumiy boshqaruv tizimining asosiy elementi hisoblanadi, bu rejalashtirish umumiy strategiyadan tashqarida mavjud mavjud emas" mazmundagi ta'rifni keltiradi.

Demin, Zinchenko va Cherkasovlarning (2016) mashinasozlik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy rejalashtirish xususiyatlari oid ilmiy tadqiqotlari ham anchayin ilmiy ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, Demin, Zinchenko va Cherkasovlar mashinasozlik korxonalari uchun tegishli moliyaviy taqsimot tizimini isloh qilish algoritmi taklif etiladi.

Moliyaviy rejalashtirish borasidagi olimlar Zaysevaning (2016) ilmiy tadqiqotlari ham ilmiy munosabat bildirishga ilmiy jihatdan ahamiyatlidir. Zayseva moliyaviy rejalashtirishning strategik ahamiyatini ta'kidlaydi: "bu shunchaki budget hisobi emas, balki pul oqimlarini boshqarish, qarzlarini to'lash va korporatsiyaning moliyaviy siyosatini strategik shakllantiradigan qarorlar qabul qilishning kalitidir va bu keng qamrovli, kelajakka yo'naltirilgan va moslashuvchan reja bo'lib, tashqi qiyinchiliklarga chidamli tizimni yaratadi" deb ta'kidlaydi.

Laenko (2016) o'z ilmiy tadqiqotlarida rejalashtirish va prognozlash o'rtasidagi aniq farqni kiritadi, ya'ni, rejalashtirish - resurslarni shakllantirish va taqsimlash bo'yicha boshqaruv faoliyat bo'lsa, prognoz qilish - bu ixtisoslashtirilgan usullar yordamida kelajakdagi moliyaviy ko'rsatkichlarni baholashdir deb ta'rif beradi.

Nexaychuk va Borisovskaya (2016) kabi mualliflar moliyaviy rejalashtirishni bo'yicha ta'rifi ko'ra, "moliyaviy rejalashtirish bu iqtisodiy faoliyatni ta'minlash uchun moliyaviy resurslar manbalarini va ulardan foydalanish yo'nalishlarini aniqlash usullari va vositalari majmuidir". Shuningdek, Nexaychuk va Borisovskaya ko'ra moliyaviy rejalashtirish: naqd pul oqimlariga qaratilgan, strukturaviy va uslubiy jihatdan qurilgan, bozor va mijozlarga yo'naltirilgan, barqaror, uzoq muddatli faoliyatga hissa qo'shishi, moliyaviy rejalashtirish tahlildan nazoratgacha bo'lgan protsessual bosqichlarni o'z ichiga oladigan jarayon sifatida bu moliyaviy rejani faqat buxgalteriya hujjatiga emas, balki strategik boshqaruv vositasiga aylantirishi zarur deb hisoblaydilar.

Iqtisodchi olimlardan Yankovskaya (2013) o'zining "Korxonalarda rejalashtirish" darsligida rejalashtirish maqsadlarni belgilash, maqsadlar va vositalarni belgilash, ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va ularga erishish yo'llarini ta'minlash jarayoni sifatida belgilanishi bilan bog'liq muhim masalalarni yoritgan. Yankovskayaning fikricha, "moliyaviy rejalashtirish jarayoni bu murakkablik, motivatsiya, prognozlash, xavfsizlik, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va o'qitishni qaratilgan tizimli boshqaruv funksiyasidan iboratdir hamda moliyaviy rejalashtirish - moliyaviy resurslar va pul oqimlarini tashkil etish bo'yicha kelajakdagi harakatlarni aniqlash jarayoni hisoblanadi.

Kazmin, Smolyaninov va Shegoleva (2016) Fikiriga ko'ra Korporativ moliyaviy rejalashtirish - bu barcha faoliyatni ichki va tashqi muhit tomonidan shakllantirilgan moliyaviy imkoniyatlar va cheklovlarga moslashtirish orqali tashkilotning barqaror ishlashini ta'minlash jarayonidir. [8].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasiga ko'ra, o'rganilayotgan kategoriya yoki munosabatlarning mohiyatini to'g'ri tadqiq qilish, uning mohiyatini kengroq tushunish va tushuntirish uchun bu kategoriya va munosabatlarning boshqalar tomonidan tadqiq qilinish darajasini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, boshqalarning tadqiqotlarida bu masalalarga bo'lgan ilmiy yondoshuvni tahlil qilish asosida mualliflik ilmiy yondoshuvlarni shakllantirish imkoniyatini beradi. Umuman olganda biz tadqiq qilayotgan korxonalarda moliyaviy rejalashtirish masalasi aslida juda yillar davomida ilmiy tadqiqot va bu sohaning ko'pgina olimlari tomonidan ilmiy tadqiq qilib kelinmoqda. Ularni ilmiy tahlil qilish uchun uch xil darajada yondoshamiz. Avvalo xorijiy (MDH davlatlaridan tashqari) olimlarning ilmiy ishlari tadqiq qilishga harakat qilamiz, keyin MDH davlatlaridagi ayrim olimlarning ilmiy ishlarini o'rganamiz va uchinchi darajada o'zimizning mahalliy olimlarimizning bu boradagi ilmiy tadqiqotlarini ham tahlil qilishga harakat qilamiz, ularni umumiy tahliliga asoslanib esa o'zimizning mualliflik ilmiy yondoshuvlarimizni ishlab chiqamiz.

Moliyaviy rejalashtirish masalasi bo'yicha MDH davlatlaridagi ayrim olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu borada Bondarenko va Soltaxanovlarning (2017) ilmiy tadqiqotlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu olimlar fikriga ko'ra, "Zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy rejalashtirish moliyaviy boshqaruvning asosiy elementidir. Bu biznesni

xavf va noaniqlikdan himoya qilishga yordam beradigan kompaniya boshqaruvining umumiy mexanizmining bir qismidir” degan ta’rifni beradi. Mualliflarning ta’kidlashicha, rejalashtirish jarayonlari ko’pincha amaliy qiyinchiliklarga duch keladi: «universal» tizim mavjud emas, har bir tashkilot o’ziga xos cheklovlariga duch keladi (me’yoriy talablar, xodimlar, texnik va boshqalar). Shuningdek, Bondarenko va Soltaxanovlar moliyaviy rejalashtirish sifatida moliyaviy rejalashtirishning maqsadlari, daromadlari va xarajatlari, hisoblash analitik apparatidan foydalanish, uzoq muddatli rejalashtirishda prognozlashning dolzarbligini ko’rsatadi. Shuningdek, ular amaliy usullarni ajratib ko’rsatishadi, ya’ni, sotish prognozi, pul oqimlari balansini va kapital qo’yilmalar budjetini tuzish, sotish ulushi va zararsizlik nuqtasini hisoblash, SVOT tahlili strategik qarorlar uchun asos sifatida: bu kuchli va zaif tomonlarni tahlil qilish asosida ishlab chiqarish hajmi va assortimentini aniqlash imkonini beradi deb hisoblaydi.”

Bondarenko va Soltaxanov moliyaviy rejalashtirishni kompleks, bosqichma-bosqich va moslashuvchan boshqaruv vositasi sifatida qabul qiladi. Ularda uning funksional jihatlari (prognoz, hisob-kitoblar, monitoring), uslubiy tuzilma va har bir tashkilotning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi. Asosiysi, tizimlilik: tahlil, prognozlash, matematik hisob-kitoblar, xavflarni baholash va hujjatli ro’yxatga olish kombinatsiyasini moliyaviy rejalashtirishning tamoyillari sifatida keltiradi.

Fikrimizcha, Bondarenko va Soltaxanovlar tomonidan moliyaviy rejalashtirishga ta’rif nisbatan to’g’ri berilgan bo’lsada, ammo, moliyaviy rejalashtirish korxonaning muhim moliyaviy boshqaruv sifatida rolga nisbatan yetarlicha baho berilmagan va ularning ta’rifida bu jarayon o’z aksini topmagan. Biroq, ushbu olimlar tomonidan moliyaviy rejalashtirishning tamoyillar sifatida keltirgan tamoyillar anchayin ilmiy ahamiyatga egadir.

Moliyaviy rejalashtirish xususidagi olimlardan yana biri Visharning (2016) ilmiy tadqiqotlari ham ilmiy ahamiyatga egadir. Vishar ham moliyaviy rejalashtirish boshqaruv tizimining bir qismi sifatida qaraydi va "Moliyaviy rejalashtirish umumiy moliyaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo’lib, u o’z navbatida korxonaning umumiy boshqaruv tizimining asosiy elementi hisoblanadi, bu rejalashtirish umumiy strategiyadan tashqarida mavjud mavjud emas" mazmundagi ta’rifni keltiradi.

Vishar moliyaviy rejalashtirishning ikkita o’zaro bog’liq darajasini belgilaydi, ya’ni, umumiy iqtisodiy - firma, bozor nazariyasi nuqtai nazaridan yondoshadi, uning fikricha, boshqaruv - tashkilotni prognozlash va rivojlantirishga qaratilgan boshqaruvning asosiy funksiyasidir, u shuningdek, rejalashtirish turlari va tartiblari sifatida uchta darajani aniqlaydi: birinchisi bu operatsion - kassa rejasi, to’lov taqvimini, ikkinchisi bu joriy - daromad/xarajat rejalari, balans rejasi va uchinchisi strategik - foyda va balans prognozidir.

Visharning ilmiy yondoshuviga ko’ra, moliyaviy rejalashtirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi: axborot tahlili, prognozlash, davrlash, metodologiyani tanlash, hujjatlar va amalga oshirish monitoringidan iborat bo’ladi. Visharning so’zlariga ko’ra, moliyaviy rejalashtirish birinchidan istiqbolli bo’lish kerak, ya’ni sotish prognozlari asosida aniq strategiya ishlab chiqilishi kerak, ikkinchidan, dinamik xarakterga ega bo’lishi kerak (iste’molchilar ehtiyojlarining o’zgarishini hisobga olgan holda amalga oshirilishi), uchinchidan, axborotga asoslangan bo’lish kerak, to’rtinchidan esa, iqtisodiy va matematik jihatdan asosli bo’lmog’i lozim va beshinchidan, risklarni boshqarish va kompaniyaning strategik hujjatlari bilan bog’langan bo’lishi kerak.

Bundan tashqari Vishar qiyin makroiqtisodiy sharoitlarda xarajat moddalarini tartiblashni taklif qiladi - birinchi navbatda ish haqi, keyin modernizatsiya, to’lovlar va hokazo. Bu rejalashtirishda moslashuvchanlik va nazorat uchun muhim deb hisoblaydi. Uning fikriga ko’ra, zamonaviy moliyaviy rejalashtirish bozor va risklar bilan bog’langan strategik integratsiyalashgan, prognozga yo’naltirilgan, ko’p jarayonli vosita bo’lib, mavjud vaziyatning diagnostikasi va iste’molchi tahliliga, turli ufqlarda daromad prognozlari (qisqa-o’rta va uzoq muddatli), moliyaviy foydalanishning ustuvor va moslashuvchan modeliga, iqtisodiy va

matematika tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xabardorlik va modellarga va doimiy monitoring va tashqi o'zgarishlarni hisobga olishga moslashgan bo'lishi hamda natijalar berishi kerak.

Albatta, Visharning moliyaviy rejalashtirishga oid ilmiy tadqiqotlari salmoqli hisoblanadi, garchi uning ham moliyaviy rejalashtirishga bergan ta'rifi to'la ma'noga ega bo'lmasada, ammo, moliyaviy moliyalashtirishga amalga oshirishga va natijalariga qo'ygan talablari katta ilmiy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Moliyaviy rejalashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan MDH davlatlari olimlaridan Demin, Zinchenko va Cherkasovlarning mashinasozlik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy rejalashtirish xususiyatlari oid ilmiy tadqiqotlari ham anchayin ilmiy ahamiyatga egadir. Ular o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida moliyaviy rejalashtirishni qat'iy tuzilgan, strategik yo'naltirilgan va barqaror moslashuvchan jarayon sifatida ko'rishadi, shuningdek, moliyaviy rejalashtirishda mavjud imkoniyatlar va muhitni tahlil qilishga, ehtiyojlar va xavflarni bashorat qilishga, kompleks moliyaviy rejani tuzish (daromadlar, xarajatlar, mablag'lar manbalari, pul oqimlari)ga, bosqichlar bo'yicha taqsimlash va bajarilishini nazorat qilishga, resurslarni vakolatli ustuvor taqsimlashga hamda xavflarni baholash va o'zgarishlarga moslashish bilan integratsiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaydi.

Shuningdek, ularning ilmiy yondoshuviga ko'ra, mashinasozlik korxonalarining barqarorligi va samaradorligini ta'minlash, rentabellik, likvidlik va risklar o'rtasidagi muvozanatni o'rnatish muhim masala bo'lib, moliyaviy rejalashtirish ishlab chiqarish jarayonlarini budjetlashtirish samaradorligining asosiy mezon bo'lib, barqarorlik o'lchovi bo'lib xizmat qiladi deb hisoblaydi va moliyaviy reja quyidagi prognozlarni o'z ichiga olishi lozim degan g'oyani ilgari suradi, ya'ni, pul oqimlari - tushumlar va xarajatlar, balans, korxona daromadi (daromad/zarar), moliyalashtirish manbalari (qisqa muddatli va uzoq muddatli)lar shu kabilar. Bundan tashqari, Demin, Zinchenko va Cherkasovlar (2016) mashinasozlik korxonalari uchun tegishli moliyaviy taqsimot tizimini isloh qilish algoritmi taklif etiladi.

Darhaqiqat boshqa tarmoqlar singari mashinasozlik korxonalarida moliyaviy rejalashtirish korxonalarni moliyaviy boshqaruvida muhim rol o'ynaydi, boshqa tomondan esa, mashinasozlik tarmog'ida xarajatlarning yuqoriligi, mahsulot tannarxida yalpi qo'shilgan qiymatning katta bo'lishi, ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlarni to'g'ri rejalashtirishda albatta moliyaviy rejalashtirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi, Zinchenko va Cherkasovlar moliyaviy rejalashtirishning aniq bosqichlarida nimalarga e'tibor berilishi haqida ilmiy yondoshuvlari yetarli bo'lmasada, ammo, ularning mashinasozlik korxonalari uchun tegishli moliyaviy taqsimot tizimini isloh qilish algoritmi o'ziga xos ilmiy ahamiyatga egadir.

Moliyaviy rejalashtirish borasidagi olimlar Zaysevaning (2016) ilmiy tadqiqotlari ham ilmiy munosabat bildirishga ilmiy jihatdan ahamiyatlidir. Zayseva moliyaviy rejalashtirishning strategik ahamiyatini ta'kidlaydi: "bu shunchaki budjet hisobi emas, balki pul oqimlarini boshqarish, qarzlarni to'lash va korporatsiyaning moliyaviy siyosatini strategik shakllantiradigan qarorlar qabul qilishning kalitidir va bu keng qamrovli, kelajakka yo'naltirilgan va moslashuvchan reja bo'lib, tashqi qiyinchiliklarga chidamli tizimni yaratadi" deb ta'kidlaydi.

Zaysevaning fikricha, yuqori samarali moliyaviy rejalashtirish uchun: pul oqimlarini boshqarishga e'tibor qaratish, uzoq muddatli va dinamik jarayon sifatida qurilgan, korporatsiyaning moliyaviy strategiyasi uchun asos yaratish, analitik, amaliy usullar va rejalar bajarilishi ustidan nazoratni birlashtirish, moliyaviy rejalashtirish, birinchi navbatda, naqd pul resurslariga - mavjud va kelajakka, shu jumladan kreditorlik majburiyatlariga va kutilayotgan foydaga qaratilgan bo'lmog'i lozimdir. Shu bilan birgalikda Zayseva retrospektiv (orqaga qarab) rejalashtirishdan ogohlantiradi, bu faqat o'tgan natijalar va an'anaviy budjet usullariga asoslangan - bu samaradorlikni pasaytiradi deb hisoblab, asosiy e'tibor daromadlarni,

xarajatlarni, moliyalashtirish manbalarini, shu jumladan qarzni to'lash majburiyatlarini aks ettiruvchi moliyaviy rejaga qaratilishi kerak degan ilmiy g'oyani ilgari suradi.

Zayseva moliyaviy rejalashtirish - bu korporatsiyaning moliyaviy siyosatini shakllantirish, resurslarni taqsimlash va strategik qarorlar qabul qilish mexanizmini ta'minlash uchun asos sifatida muhamiyat kasb etib, moliyaviy reja keng qamrovli va uzoq muddatli (bir yildan ortiq) bo'lishi, asosan savdo prognoziga asoslangan bo'lishi, shuningdek, majburiyatlar uchun to'lov rejasini o'z ichiga olishi kerak va u istiqbolli (sotish rejalari asosida), dinamik (iste'molchilarning afzalliklaridagi o'zgarishlarni hisobga olish), axborotga asoslangan (ma'lumotlarga o'z vaqtida kirish orqali), iqtisodiy va matematik jihatdan ishonchli (tasdiqlangan hisoblash usullaridan foydalangan holda) hamda xatarlarni boshqarish va kompaniyaning strategik hujjatlari bilan bog'liq holda bo'lishi lozim deb hisoblaydi.

Moliyaviy rejalashtirish borasida keng ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim Laenko (2016) o'z ilmiy tadqiqotlarida rejalashtirish va prognozlash o'rtasidagi aniq farqni kiritadi, ya'ni, rejalashtirish - resurslarni shakllantirish va taqsimlash bo'yicha boshqaruv faoliyat bo'lsa, prognoz qilish - bu ixtisoslashtirilgan usullar yordamida kelajakdagi moliyaviy ko'rsatkichlarni baholashdir deb ta'rif beradi.

Laenko moliyaviy rejalashtirish usullari sifatida quyidagilarni keltiradi: iqtisodiy tahlil usuli - bu haqiqiy va rejalashtirilgan ma'lumotlarni taqqoslash, og'ishlarni aniqlash, tuzatish harakatlarini boshlashni nazarda tutsa, nisbiy usul - asosiy moliyaviy koeffitsientlar asosida ehtiyojlarni hisoblashni bildiradi, normativ usul esa, oldindan belgilangan standartlar asosida resurslarni aniqlashga xizmat qiladi, balans usuli - bu balans orqali ehtiyojlar va mavjud resurslarni solishtirishdan iborat bo'ladi, diskontlangan pul oqimi usuli esa, pulning vaqt qiymatini hisobga olgan holda strategik qarorlarni baholashda qo'llanilsa, ko'p variantli (stsenariy) usul - bir nechta strategik variantlarni ishlab chiqish va ularni qiyosiy tahlil qilishda yordam beradi deb hisoblaydi.

Shuningdek, Laenko rejalashtirishda iqtisodiy va matematik modellash - bu rasmiylashtirilgan modellar yordamida turli moliyaviy vaziyatlarni simulyatsiya qilish bo'lib, undan keng foydalanish zamonaviy moliyani tashkil qilishda o'z ahamiyatiga ega deb hisoblash bilan bir qatorda moliyaviy prognozlashni amalga oshirish moliyaviy rejalashtirishni to'g'ri tashkil qilishda uslubiy jihatdan ahamiyatlidir deb uqtiradi va moliyaviy prognoz qilishning usullari sifatida quyidagilarni: ekspert baholash usuli (tajribaga asoslangan mutaxassis fikrlash), ekstrapolyatsiya usuli (ma'lumotlarda topilgan tendensiyalarni davom ettirish), deterministik munosabatlarni bashorat qilish usuli (ko'rsatkichlar orasidagi matematik naqshlarni aniqlash) kabilardan foydalanish ilmiy jihatdan to'g'ri tanlovdir degan ilmiy g'oyani ilgari suradi.

Laenko bundan tashqari korxonada asosiy rejalashtirish vazifalari sifatida ham o'z ilmiy qarashlarini bildirib ular: resurslardan oqilona foydalanish rentabellikni ta'minlash, joriy va investitsiya faoliyati uchun mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, likvidlikni qo'llab-quvvatlash uchun kiruvchi va chiquvchi oqimlarni muvofiqlashtirish, qabul qilingan qarorlarning samaradorligi va xavflarini baholashdan iborat ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Laenkoning fikricha korxonalarda moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish olti bosqichda amalga oshirilishi ijobiy natija beradi va tahlil prognoz davrlashtirish usullarni tanlash hujjatlashtirish monitoring kabi ketma-ketlikdan iborat bo'lmog'i lozim deb hisoblaydi, shuningdek, o'z navbatida korxonalarda moliyaviy rejalashtirishni to'g'ri amalga oshirish uchun Laenko tizimli, ko'p bosqichli yondashuvni taklif qiladi, rejalashtirish va prognozlashni bir vaqtda amalga oshirish, analitikdan matematikaga qadar turli xil usullar to'plamidan foydalanish, prognozlash mustaqil va muhim komponent sifatida foydalanish, ustuvor vazifalar sifatida rentabellik, likvidlik, riskni baholashni amalga oshirish, barcha bosqichlarda nazorat qilish va moslashishga e'tibor berish hamda moliyaviy instrumentlarning kombinatsiyasi va professional boshqaruvdan samarali foydalanishning muhimligini ta'kidlaydiki, bunday

yondashuv korxonada asosli, moslashuvchan va barqaror moliyaviy boshqaruv tizimini yaratish imkonini beradi degan ilmiy g'oyaga asoslanadi.

Moliyaviy rejalashtirishni korxonalarda amalga oshirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar olib borgan yana bir guruh olimlardan Karpova va Kyaryakliev (2016) kabi mualliflarning ta'kidlashicha, moliyaviy rejalashtirish nazorat bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak: bu jarayonlar moliyaviy boshqaruv doirasida yagona mexanizmi tashkil qiladi. Ular moliyaviy rejalashtirishni bosqichma-bosqich algoritmi aniqlaganlarki, ular: ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish (moliyaviy holat, tashqi muhit), tahlilga asoslangan prognozlash, rejalarni davriylashtirish (operativ, joriy, strategik), hisoblash usullarini tanlash, hujjatlar - rejani tasdiqlash, bajarilishini nazorat qilish(rejani/haqiqiyni solishtirish, og'ishlarni tahlil qilish) kabi muhim ketma-ketlikdagi bosqichlardan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaydilar.

Shuningdek, ushbu mualliflar moliyaviy rejalashtirish jarayonida tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun shartlarni ham keltirib o'tib, ular: axborot shaffofligi - ma'lumotlar aniq bo'lishi va jarayonning barcha ishtirokchilariga o'z vaqtida uzatilishidan iborat va moliyaviy rejalashtirish va nazoratni alohida vazifalar sifatida emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida bo'lmog'i lozim deb hisoblashadi. Bundan tashqari mualliflarning ilmiy g'oyasiga ko'ra, rejalashtirish asosni yaratadi (maqsadli ko'rsatkichlar, budjetlar, taxminlar), nazorat - bu asosni amalga oshirishning "sifatini ta'minlash" mexanizmi hisoblanadi, motivatsiya tizimni moslashuvchan va samarali qiladi - xodimlarni jalb qilishni rag'batlantiradi, bo'limlarning integratsiyasi va axborot almashinuvi bunday tizimni joriy etishning kalitidir.

Nazariyadan amaliyotga o'tish uchun korxona nazorat tizimiga sarmoya kiritishi, xodimlarni o'qitishi va tahliliy va nazorat tartib-qoidalari bilan qo'llab-quvvatlanadigan motivatsion siyosatni shakllantirishi kerak deb hisoblashadi ushbu mualliflar. Ularning ta'kidlashicha, rejalashtirish jarayonida moliyaviy menejment rejalashtirish madaniyatini oshirishi, o'qitish va mas'uliyatni qo'llab-quvvatlashi, rag'batlantirish va sanksiyalar - bonuslar va mas'uliyatning kombinatsiyasi intizom va diqqatni saqlashga xizmat qilmog'i lozim. Ularning tavsiyalariga ko'ra, mexanizm tahlili prognoz reja hujjatlashtirish nazorat motivatsiyani o'z ichiga olgan tuzilmaviy va moslashtirilgan jarayon bu moliyaviy rejalashtirish va nazoratni resurslarni samarali boshqarish, xavflarni kamaytirish va tashkilot samaradorligini oshirishga qodir bo'lgan dinamik, ishlaydigan tizimga aylantiradi.

Nexaychuk va Borisovskaya (2016) kabi mualliflar moliyaviy rejalashtirishni bo'yicha ta'rifiga ko'ra, "moliyaviy rejalashtirish bu iqtisodiy faoliyatni ta'minlash uchun moliyaviy resurslar manbalarini va ulardan foydalanish yo'nalishlarini aniqlash usullari va vositalari majmuidir". Bundan tashqari, ushbu mualliflarning fikricha, moliyaviy rejalashtirish reaktiv bo'lmasligi, faqat mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi kerak. Buning o'rniga, korxona hozir nima foyda keltirishini va keyingi 1-3 yil ichida nima olib kelishini tan olgan holda savdo rejalarini o'zgaruvchan iste'molchilar ehtiyojlari bilan bog'lashi samaralidir. Shuningdek, ushbu mualliflar strategik moliyaviy rejalashtirishni uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishning bir turi sifatida ta'kidlaydilar. Sanoat korxonalari uchun quyidagilar ayniqsa muhim deb hisoblaydi: tashqi qiyinchiliklarga chidamlilik (globallashuv, bozor beqarorligi), uzoq muddatli istiqbolda makro va indikativ moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanish (masalan, inflyatsiya). Nexaychuk va Borisovskayalarning ilmiy yondashuviga ko'ra, moliyaviy rejalashtirishning reaktiv mexanizmidan ko'ra tuzilgan, strategik yo'naltirilgan, mijozlarga yo'naltirilgan va faol mexanizm bo'lmog'i lozimdir. Moliyaviy rejalashtirish jarayonida nima va qachon pul olib kelishini aniq tushunish, rejalashtirish manbalari va moliyalashtirish yo'nalishlarini aniq qilib olish, talab va korxona strategiyasiga muvofiqligini ta'minlash muhimdir.

Shuningdek, Nexaychuk va Borisovskayaga ko'ra moliyaviy rejalashtirish: naqd pul oqimlariga qaratilgan, strukturaviy va uslubiy jihatdan qurilgan, bozor va mijozlarga yo'naltirilgan, barqaror, uzoq muddatli faoliyatga hissa qo'shishi kerakki, moliyaviy rejalashtirish tahlildan nazoratgacha bo'lgan protsessual bosqichlarni o'z ichiga oladigan

jarayon sifatida bu moliyaviy rejani faqat buxgalteriya hujjatiga emas, balki strategik boshqaruv vositasiga aylantirishi zarur deb hisoblaydilar.

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan o'zining "Korxonalarda rejalashtirish" darsligida rejalashtirish maqsadlarni belgilash, maqsadlar va vositalarni belgilash, ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va ularga erishish yo'llarini ta'minlash jarayoni sifatida belgilanishi bilan bog'liq muhim masalalarni yoritgan. Yankovskayaning (2013) fikricha, "moliyaviy rejalashtirish jarayoni bu murakkablik, motivatsiya, prognozlash, xavfsizlik, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va o'qitishni qaratilgan tizimli boshqaruv funksiyasidan iboratdir hamda moliyaviy rejalashtirish - moliyaviy resurslar va pul oqimlarini tashkil etish bo'yicha kelajakdagi harakatlarni aniqlash jarayoni hisoblanadi".

O'z navbatida professorlar Malikov va Olimjonovlar "Moliyaviy rejalashtirish" tushunchasini taraqqiyotning asosiy tendensiyalarini aniqlash va moliyaviy tahlil qilish, jalb qilingan mablag'lar va vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni sarflash (joylashtirish) menejmenti, firma ichidagi moliyaviy natijalar va pullarni rejalashtirish, hisobga olish va nazorat qilish texnologiyasi, investitsion menejment, kapitallar menejmenti, faoliyatning boshqa ko'rinishlari (trast, faktoring, lizing va boshqalar)" ning jamlanmasi sifatida tushuntirib o'tadi.

Professor Elmirzaev (2018) esa, o'zining "Korporativ moliya" darsligida "Moliyaviy rejalashtirish korporativ moliyani boshqarish tizimining ajralmas qismi sifatida korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga doir qaror qabul qilish asoslarini ta'minlaydi. Moliyaviy rejalashtirishning korxonalar faoliyati uchun alohida dolzarbligi shundaki, u keskin raqobat sharoitida uzluksiz rivojlanish yo'lini belgilab beradi. Moliyaviy rejalashtirishning noto'g'ri tashkil etilishi bir tomondan bozorning ma'lum bir mahsulotga nisbatan to'yinishi, ikkinchi tomondan esa boshqa bir mahsulotga nisbatan taqchillikning yuzaga kelishiga olib keladi. Natijada esa bozor muvozanati buziladi" deb ta'kidlaydi va o'z ilmiy tadqiqotlarida korxonalarda moliyaviy rejalashtirishni soliqlarni rejalashtirish jarayoni bilan birga tadqiq qilgan, uni to'g'ri amalga oshirish bilan bog'liq ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan.

Mahalliy olimlarimizdan korxonalarda moliyaviy rejalashtirish haqida alohida mavzu doirasida dissertatsion tadqiqotlar olib borgan olim Axmedov (2019) "moliyaviy rejalashtirish - xo'jalik sub'ektida samaradorlik va uzviylikka erishish maqsadida moliyaviy risklarni hisobga olgan holda pul oqimlari harakatini tashkil etish, moliyaviy resurslarni shakllantirish va taqsimlashga qaratilgan rejalashtirishning alohida muhim yo'nalishidir deb ta'rif beradi va uning bosh maqsadi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali moliyaviy ko'rsatkichlar o'sishini ta'minlashdir" deb ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi Ergashev esa, iqtisodiy xavfsizlik va moliyaviy rejalashtirish masalalarini o'yg'unlikda tadqiq qilib, moliyaviy rejalashtirishni mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash vositasi sifatida ko'radi, moliyaviy rejalashtirish faqat korxona miqyosida emas, balki davlat miqyosida ham muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi, davlat budjeti, soliq siyosatining uzoq muddatli prognozlari va inflyatsiyani nazorat qilish mexanizmlari rejalashtirishning muhim qismidir degan g'oyani ilgari suradi. Yana bir mahalliy tadqiqotchilarimizdan Rajabov budjet tashkilotlarida moliyaviy rejalashtirishning xususiyatlarini tadqiqiga oid ilmiy ishlari doirasida budjet tashkilotlarida moliyaviy rejalashtirishning ustuvor yo'nalishlarini - bu xarajatlarning maqsadlilik va sarflashning samaradorligidir, deb hisoblaydi hamda budjet mablag'larini taqsimlash, xarajat smetalarini ishlab chiqish va ijro nazorati masalalariga e'tibor qaratadi. Tadqiqotchi Abdullaev esa, O'zbekistonda hududiy moliyaviy rejalashtirishning strategik rivojlanishdagi o'rni tahlil qilgan holda prognozlash, KPI tizimi va hududiy amaliyotlarni o'zaro muvofiqlashtirish zarurligi ta'kidlangan hamda metodologik jihatdan moliyaviy rejalashtirish samaradorligini baholash uchun ko'rsatkichlar belgilab bergan.

Mahalliy olimlarimiz tomonidan korxonalarda moliyaviy rejalashtirish masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni umumlashtirgan holda quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, moliyaviy rejalashtirish moliyaviy boshqaruv samaradorligini ta'minlashning muhim omili sifatida ta'riflangan.

Ikkinchidan, moliyaviy rejalashtirishni to'g'ri tashkil etish korxonalarda moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish darajasini oshiradi, degan xulosalar ilgari surilgan.

Uchinchidan, moliyaviy rejalashtirish jarayoni moliyaviy prognozlash bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilgandagina belgilangan maqsadlarga erishish mumkinligi haqida ilmiy g'oyalar shakllangan.

To'rtinchidan, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishda moliyaviy rejalashtirishdan foydalanish istiqbolli yo'nalish sifatida baholangan.

Beshinchidan, moliyaviy rejalashtirishning samaradorligi uning maqsad, vazifa, tamoyil va bosqichlarining uyg'un amalga oshirilishiga bog'liqligi ilmiy asoslangan.

Oltinchidan, zamonaviy sharoitda moliyaviy rejalashtirish samaradorligi ko'pincha biznes-reja va moliyaviy prognozlarni tayyorlashda Excel modellari, scenario planning, Monte Carlo simulyatsiyasi kabi usullarni joriy etish bilan chambarchas bog'liq ekanligi to'g'risida ilmiy tavsiyalar berilgan.

Ettinchidan, korxonalarda moliyaviy rejalashtirishga tizimli yondashuv shakllantirish, moliyaviy siyosatning mohiyati va funksiyalarini o'rganish, korporativ moliyaviy menejment tarkibida moliyaviy rejalashtirishning o'rni va tamoyillarini aniqlash, shuningdek, soliq rejalashtirish amaliyotidagi metodologik muammolarni tahlil qilish zarurligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi sharoitida moliyaviy rejalashtirishning ahamiyati, vazifalari, soliqlarni strategik rejalashtirish bosqichlari, soliq risklari va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda moliyaviy prognozlashning integratsiyalashgan tizimini ishlab chiqishga doir ilmiy g'oyalar asoslangan.

Xulosa va takliflar.

Moliyaviy rejalashtirishning moliya tizimida o'ziga xos ahamiyatga egadir. Davlat moliyasi darajasida moliyaviy rejalashtirishning maqsadlari davlat budjetini shakllantirish, soliq siyosati, resurslarni qayta taqsimlash, taqchillik va qarzlarni rejalashtirishga qaratilgan bo'lsa, korxonalar doirasida esa, marmoyalarni taqsimlash, daromadlar va xarajatlarni nazorat qilish, foyda va kapitalni rejalashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shuningdek, banklar va boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi sub'ektlarda esa, likvidlik, zaxiralar, aktivlar daromadlari va risklarni boshqarishga, uy xo'jaliklarida daromadlar, jamg'armalar, kreditlar, xarajatlar va moliyaviy maqsadlarni boshqarishga, xalqaro miqyosda esa, to'lov balansi, valyuta siyosati, tashqi qarz va sarmoyani rejalashtirishga yo'naltiriladi.

Moliyaviy rejani tuzishdan tortib to uning amalga oshirilishini nazorat qilish fikrimizcha yetti bosqichdan iborat mexanizmlardan iborat bo'lishi kerak. Jumladan, joriy moliyaviy holat tahlili dastlabki bosqichida daromadlar, xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarni baholash, likvidlik, rentabellik, aylanma va qarzlarni tahlil qilish, korxona moliyasining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash amalga oshirilsa, keyingi bosqich-rejalashtirish maqsadlarini belgilash bosqichida umumiy (masalan, daromadni yiliga 15% ga oshirish) va maxsus (masalan, soliq yukini kamaytirish, investitsiyalarni ko'paytirish, xarajatlarni kamaytirish) maqsadlar belgilab olinishi zarur bo'ladi, moliyaviy ko'rsatkichlarni prognozlash bosqichida esa, daromad, tannarx, foyda prognoz qilish, pul oqimi prognozini amalga oshirish, soliqlar, amortizatsiya, kreditlar bo'yicha prognoz qilish amalga oshiriladi, keyingi bosqich bu -moliyaviy rejani ishlab chiqish bosqichi bo'lib, unda asosiy rejalashtirish hujjatlari tuzish, daromad va xarajatlar va pul oqimi budjeti budjetini tuzish, investitsiyalar va kapital xarajatlar rejasi, soliq rejasini tuzish amalga oshirilsa, moliyalashtirish manbalarini tanlash bosqichida moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojni aniqlash (kapital yoki qarz mablag'lari), kapitalni qiymatini baholash amalga oshiriladi, shuningdek, rejani tasdiqlash va amalga oshirish bosqichida rejani rahbariyat tomonidan tasdiqlash, amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar belgilash, rejani korxona faoliyatida amalga oshirishga kirishiladi hamda yakuniy bosqich hisoblangan amalga oshirish monitoringi va

nazorati bosqichida esa, rejalashtirilgan va haqiqiy ko'rsatkichlarni taqqoslash, orqada qolish sabablarini tahlil qilish, zarur hollarda rejaga o'zgartirish kiritib boriladi hamda yakuniy xulosalar tayyorlanadi, bu xulosalar esa korxonada moliyaviy qarorlar qabul qilishga asos bo'ladi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Elmirzayev, S. (2018). *Korporativ moliya. Darslik.* – T., 68 bet.

Ахмедов, Хасан Рузубаевич (2019). *Хўжалик субъектларида молиявий режаслаштиришни ташкил этишни такомиллаштириш йўналишлари. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ.* – Тошкент, 63 б.

Бондаренко, Т.Г., Солтаханов, А.У. (2017). *Необходимость финансового планирования в условиях современной экономики. Инновационная наука, № 2-1, 164-168.*

Вишар, С.П. (2016). *Современные проблемы финансового планирования предприятий системы потребительской кооперации в России. Символ науки, № 6, 160-163.*

Демин, С.С., Зинченко, А.С., Черкасов, М.Н. (2016). *Особенности финансового планирования производственных процессов на предприятиях машиностроения. Вестник университета, № 5, С. 130-132.*

Зайцева, И.С. (2016). *Роль финансового планирования в формировании финансовой политики корпорации. Политика, экономика и инновации, № 8 (10), С. 1-4.*

Казмина, И.В., Смолуанинова, И.В., Щеголева, Т.В. (2016). *Символ науки, № 4, С. 83-84.*

Карпова, Е.Н., Коряклиев, С.В. (2016). *Механизм реализации системы финансового планирования и контроля на предприятии. Символ науки, № 5, С. 125-129.*

Лаенко, О.А. (2016). *Методы финансового планирования и прогнозирования на предприятиях. Вестник Прикамского социального института, С. 52-55.*

Нехайчук, Ю.С., Борисовская, А.П. (2016). *Об организации финансового планирования на промышленном предприятии. Символ науки, № 9, С. 117-121.*

Янковская, В.В. (2013). *Планирование на предприятии: Учебник. 425 с.*